



Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


Doimiy aholi soni.

Toshkent shahar doimiy aholisi soni 2021-yil 1-aprel holatiga 2 716,2 ming kishini tashkil etib, 2020-yilning yanvar-mart oylarida 21,8 ming kishiga yoki 0,8 %ga o'sgan.

E'tibor bering: 2021-yil yanvar-mart


- Aholi soni **21,8 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **13,3 ming nafarni** tashkil etdi.
- **3,9 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **4,7 mingta nikoh** va **1,3 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Toshkent shahar aholisining umumiy o'sishi (2021-yil yanvar-mart)




Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi
(2021-yil 1-aprel holatiga, shahar jami aholisiga nisbatan, %da)



Shahar hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil 1-aprel holatiga eng ko'p aholi soni Olmazor tumanida 379,2 ming kishini (shahar aholisi sonidagi ulushi 14,0 %ni) va Yunusobod tumanida 353,7 ming kishini (13,0 %), aksincha eng kam aholi soni Bektemir tumanida 31,8 ming kishini (1,2 %) va Sergeli tumanida 106,7 ming kishi (3,9 %) ni tashkil etdi.




Demografik holat

Tumanlar kesimida doimiy aholi soni
(2021-yil 1-aprel holatiga, ming kishida)




Toshkent shahrining aholi soni 2021-yil 1-aprel holatiga 2 716,2 ming kishi, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 0,8 foizga ko'paydi.



Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan Bektemir tumanida 1,3 %ga, Sergeli tumanida 0,9 %ga, Uchtepa tumanida 0,8 %ga yetdi. Eng kam o'sish sur'ati Shayxontohur tumanida 0,4 % ni, Mirzo Ulug'bek tumanida 0,5 %ni, Olmazor tumanida 0,6% ni tashkil etdi.

Demografik holat

Toshkent shahrida aholi sonining jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2021-yil 1-aprel holatiga, ming kishida)



Ma'lumot uchun

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra Toshkent shahri bo'yicha ayollar soni 1 387,1 ming kishini, erkaklar soni esa 1 329,1 ming kishini tashkil qildi. Ko'rsatkichlardan shuni kuzatishimiz mumkinki, ayollar soni 2,1% ga erkaklar sonidan ko'proq.

| | Doimiy aholi soni (ming kishi) | shundan: | | | |
|------------------------|-----------------------------------|-----------------------|----------------------|----------------|---------------|
| | | erkak (ming kishi) | ayol (ming kishi) | erkak (foizda) | ayol (foizda) |
| Toshkent shahar | 2 716,2 | 1 329,1 | 1 387,1 | 48,9 | 51,1 |
| tumanlar: | | | | | |
| Uchtepa | 280,4 | 138,9 | 141,5 | 49,5 | 50,5 |
| Bektemir | 31,8 | 15,0 | 16,8 | 47,2 | 52,8 |
| Yunusobod | 353,7 | 171,4 | 182,3 | 48,5 | 51,5 |
| Mirzo Ulug'bek | 286,5 | 142,5 | 144,0 | 49,7 | 50,3 |
| Mirobod | 143,7 | 69,6 | 74,1 | 48,4 | 51,6 |
| Shayxontoxur | 349,8 | 170,9 | 178,9 | 48,9 | 51,1 |
| Olmazor | 379,2 | 184,2 | 195,0 | 48,6 | 51,4 |
| Sergeli | 106,7 | 52,4 | 54,3 | 49,1 | 50,9 |
| Yakkasaroy | 122,3 | 59,8 | 62,5 | 48,9 | 51,1 |
| Yashnobod | 260,9 | 127,7 | 133,2 | 48,9 | 51,1 |
| Yangihayot | 138,7 | 66,9 | 71,8 | 48,2 | 51,8 |
| Chilonzor | 262,5 | 129,8 | 132,7 | 49,4 | 50,6 |

Demografik holat

Tug'ilish. 2021-yilning yanvar-mart oylarida 13,3 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 19,9 promilleni tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 1,9 promillega ko'paygan (2019-yilning yanvar-mart oylarida 18,6 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2020-yilning mos davriga nisbatan Sergeli tumanida (20,5 promilledan 27,6 promillega) Shayxontohur tumanida (17,6 promilledan 21,1 promillega) Uchtepa tumanida (22,2 promilledan 24,9 promillega) tumanlarida sezilarli o'sganligi kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Qiz bolalar:
6,8
ming nafar



O'g'il bolalar:
6,5
ming nafar



Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni, kishi yanvar-mart

| | 2020 y. | 2021 y. | O'sish surati foizda |
|----------------------------------|---------------|---------------|----------------------|
| Toshkent shahar tumanlar: | 11 557 | 13 256 | 114,7 |
| Uchtepa | 1 502 | 1 718 | 114,4 |
| Bektemir | 217 | 231 | 106,5 |
| Yunusobod | 1 577 | 1 578 | 100,1 |
| Mirzo Ulug'bek | 1 037 | 1 064 | 102,6 |
| Mirobod | 469 | 585 | 124,7 |
| Shayxontoxur | 1 489 | 1 818 | 122,1 |
| Olmazor | 1 815 | 2 069 | 114,0 |
| Sergeli | 1 015 | 723 | 71,2 |
| Yakkasaroy | 367 | 444 | 121,0 |
| Yashnobod | 1 024 | 1 160 | 113,3 |
| Yangihayot | - | 609 | - |
| Chilonzor | 1 045 | 1 257 | 120,3 |



Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha tug'ilganlar soni (kishi) 2021-yil yanvar-mart



Demografik holat

Vafot etganlar. 2021-yilning yanvar-mart oylarida 3,9 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,8 promilleni tashkil etib, 2020-yilning mos davriga nisbatan 0,5 promillega kamaydi (2020-yilning yanvar-mart oylarida 6,3 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2020-yilning mos davriga nisbatan sezilarli darajada kamayishi Mirzo Ulug'bek (7,6 promilledan 6,5 promillega), Mirobod (7,8 promilledan 6,9 promillega), Olmazor (5,4 promilledan 4,6 promillega), Yashnobod (8,1 promilledan 7,6 promillega) va Uchtepa (6,3 promilledan 5,9 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Vafot etganlar



**2,1 ming
kishi**




**1,8 ming
kishi**

Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni (kishi) 2021-yil yanvar-mart


| | 2020 y. | 2021 y. | O'sish sur'ati foizda |
|------------------------|---------|---------|-----------------------|
| Toshkent shahar | 4 040 | 3 886 | 96,2 |
| tumanlar: | | | |
| Uchtepa | 425 | 406 | 95,5 |
| Bektemir | 62 | 63 | 101,6 |
| Yunusobod | 507 | 511 | 100,8 |
| Mirzo Ulug'bek | 524 | 461 | 88,0 |
| Mirobod | 268 | 242 | 90,3 |
| Shayxontoxur | 415 | 378 | 91,1 |
| Olmazor | 491 | 429 | 87,4 |
| Sergeli | 326 | 194 | 59,5 |
| Yakkasaroy | 142 | 172 | 121,1 |
| Yashnobod | 487 | 487 | 100,0 |
| Yangihayot | - | 160 | - |
| Chilonzor | 393 | 383 | 97,5 |

Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlar soni (kishi)
2021-yil yanvar-mart



Toshkent shahri bo'yicha vafot etganlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati (foizda)




Demografik holat

2021-yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 57,7 % qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 14,1 % o'simtalardan, 4,6 % ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,8 % baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,3 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 6,4 % yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 7,1 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,1 ming nafarni tashkil etib, ularning 60,1 % perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 22,6 % nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 10,5 % tug'ma anomaliyalardan, 4,5 % yuqumli va parazitar kasalliklardan va 2,3 % boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2021-yil yanvar-mart

Tabiiy o'sish. 2021-yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 9,4 ming kishini tashkil etib, 2020-yil mos davriga nisbatan 1,9 ming kishiga (2020-yilning yanvar-mart oylarida 7,5 ming kishi bo'lgan) o'sgan.



Tabiiy o'sish:
9,4 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2021-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 4,7 ming ta nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,1 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2020-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Mirobod (110,1%) tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2021-yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 1,3 mingta nikohdan ajralishlar qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 2,0 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2020-yilning mos davriga nisbatan **yuqori pasayish sur'atlari** Mirzo Ulug'bek (12,4%), Mirobod (72,5%), tumanlariga to'g'ri kelmoqda.




Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikoh va ajrimlar soni, birlik (2021-yil yanvar-mart)



| | Tuzilgan nikohlar | | | Nikohdan ajralishlar | | |
|------------------------|-------------------|--------------|----------------------|----------------------|--------------|----------------------|
| | 2020 y. | 2021 y. | O'sish surati foizda | 2020 y. | 2021 y. | O'sish surati foizda |
| Toshkent shahri | 3 213 | 4 719 | 146,9 | 998 | 1 338 | 134,1 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Uchtepa | 323 | 559 | 173,1 | 98 | 131 | 133,7 |
| Bektemir | 70 | 111 | 158,6 | 23 | 23 | 100,0 |
| Yunusobod | 416 | 639 | 153,6 | 122 | 187 | 153,3 |
| Mirzo Ulug'bek | 337 | 434 | 128,8 | 121 | 136 | 112,4 |
| Mirobod | 169 | 186 | 110,1 | 51 | 88 | 172,5 |
| Shayxontohur | 390 | 589 | 151,0 | 103 | 126 | 122,3 |
| Olmazor | 431 | 570 | 132,3 | 124 | 138 | 111,3 |
| Sergeli | 299 | 147 | 49,2 | 109 | 134 | 122,9 |
| Yakkasaroy | 143 | 397 | 277,6 | 39 | 64 | 164,1 |
| Yashnobod | 309 | 450 | 145,6 | 101 | 172 | 170,3 |
| Yangihayot | - | 122 | - | - | 30 | - |
| Chilonzor | 326 | 515 | 158,0 | 107 | 109 | 101,9 |

Demografik holat

Toshkent shahri bo'yicha tuzilgan nikoh va ajrimlar soni, birlik
(2021-yil yanvar-mart)



Demografik holat


Migratsiya. 2021-yilning yanvar-mart oylarida Toshkent shahri bo'yicha ko'chib kelganlar soni 31,3 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 18,8 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini 12,4 ming kishi tashkil etib, 2019-yilning mos davrida 7,0 ming kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

| | 2020-yil yanvar-mart | 2021-yil yanvar-mart |
|-----------------------------|-------------------------|-------------------------|
| Ko'chib kelganlar | 8,7 | 31,3 |
| Ko'chib ketganlar | 1,6 | 18,8 |
| Migratsiya saldosini | 7,0 | 12,5 |



Toshkent shahrining tumanlar kesimidagi aholi migratsiyasi (ming kishi)



Migratsiya saldosining yuqori darajasi Yashnobod (1,4 ming kishi), Olmazor (0,4 ming kishi), Mirzo Ulug'bek (0,9 ming kishi) hamda Sergeli (0,5 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi
Tel: (71) 203--88-48)